



VILOYATDA IQTISODIY FAOLIYAT TURLARI BO'YICHA SANOAT MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQRARISH

Azimov Allaberdi

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti

ORCID: 0009-0007-6188-6844

al.azimov@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada Qashqadaryo viloyatida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish masalalari yoritilgan. Viloyatda doimiy ravishda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha yarmarka o'tkazib borilmoqda. Hududlar kesimida sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish, 2025-yil yanvar-dekabr oylarida qayta ishlash sanoatining texnologik tarkibi sanoat ishlab chiqarish, 2025-yil yanvar-dekabr oylarida qayta ishlash sanotining texnologik tarkibi, 2025-yilning yanvar-dekabr oylarida kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi va jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmidagi ulushi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: iqtisodiy faoliyat turlari, sanoat mahsulotlari, qayta ishlash sanoati, biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi, tog'-kon sanoati mahsulotlari.

ПРОИЗВОДСТВО ПРОМЫШЛЕННОЙ ПРОДУКЦИИ ПО ВИДАМ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В РЕГИОНЕ

Азимов Аллаберды

Университет экономики и педагогики

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы промышленного производства по видам хозяйственной деятельности в Кашкадарьинской области. В регионе постоянно проводится выставка продукции промышленного производства по видам хозяйственной деятельности. Анализируются производство продукции промышленного производства по регионам, технологическая структура перерабатывающей промышленности в январе-декабре 2025 года, объем продукции промышленного производства, выпускаемой малыми хозяйствующими субъектами в январе-декабре 2025 года, и их доля в общем объеме производства продукции промышленного производства.

Ключевые слова: виды хозяйственной деятельности, продукция промышленного производства, перерабатывающая промышленность, объем продукции промышленного производства хозяйствующими субъектами, продукция горнодобывающей промышленности.

PRODUCTION OF INDUSTRIAL PRODUCTS BY TYPES OF ECONOMIC ACTIVITY IN THE REGION

Azimov Allaberdı

University of Economics and Pedagogy

Abstract. *This article discusses the issues of industrial production by types of economic activity in the Kashkadarya region. A fair on the production of industrial products by types of economic activity is constantly being held in the region. The production of industrial products by regions, the technological structure of the processing industry in January-December 2025, the technological structure of the processing industry in January-December 2025, the volume of industrial products produced by small business entities in January-December 2025 and their share in the total volume of industrial products production are analyzed.*

Keywords: *types of economic activity, industrial products, processing industry, volume of industrial products produced by business entities, mining industry products.*

Kirish.

Bugungi kunda hududlarning barqaror rivojlanishini ta'minlashda sanoat ishlab chiqarishining o'rnı beqiyos hisoblanadi. Ayniqsa, viloyatlar miqyosida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni tahlil qilish hududiy iqtisodiy salohiyatni baholash, mavjud resurslardan samarali foydalanish hamda yangi ishlab chiqarish yo'nalishlarini shakllantirish imkonini beradi.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar jarayonida sanoat tarmoqlarini diversifikatsiya qilish, yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ulushini oshirish va hududlar kesimida ishlab chiqarish hajmlarini kengaytirish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilanmoqda. Shu jihatdan, viloyat darajasida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini o'rganish hududiy rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur mavzu doirasida sanoat ishlab chiqarishining tarkibi, yetakchi tarmoqlar, o'sish sur'atlari hamda hudud iqtisodiyotiga ta'siri tahlil qilinib, kelgusida sanoat salohiyatini yanada oshirish bo'yicha ilmiy-amaliy xulosalar chiqariladi.

Adabiyotlar sharhi.

Maqolada viloyat bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xududlarda sanoatni jadal rivojlantirish va sanoat korxonalarini ekspochora-tadbirlari tugrisida"gi 2025-yil 04-oktyabrdagi Uzbekiston Respublikasi Prizidentining PK-295-sonli qarori (2025) hamda "Kambag'allikni qisqartirish va bandlik sohasida davlat siyosatini tako millashtirish va samaradorlikni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2024-yil 4-oktyabrdagi PQ-347-son qaror (2024) ijrosini ta'minlash hamda Vazirlar Mahkamasining "Dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari faoliyatini qo'llab-quvvatlashga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2025-yil 13-maydagi 317-son qarori (2025) ijrosini ta'minlash masalalari yoritilgan.

Mahalliy olimlardan Xodiev va Mustafakulovlarning (2024) tadqiqotlarida hududiy rivojlanish va ijtimoiy tenglikni ta'minlashda qishloq xo'jaligi subyektlari, xususan dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalarning roli alohida ta'kidlanadi. Ularning fikricha, tomorqa yerlaridan samarali foydalanish orqali aholi daromadlarini oshirish kambag'allikni qisqartirishning eng tezkor va barqaror mexanizmlaridan biri hisoblanadi. Bu ilmiy xulosalar Vazirlar Mahkamasining dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari faoliyatini qo'llab-quvvatlashga doir qarorlarida amaliy jihatdan o'z ifodasini topgan.

Iqtisodchi olim Stiglitz (2012) davlatning faol ijtimoiy siyosati bozor mexanizmlarini to'ldiruvchi muhim omil ekanini qayd etadi. Uning ta'kidlashicha, subsidiya va grantlar kabi moliyaviy instrumentlar aholini iqtisodiy jarayonlarga jalb qilishda muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Prezidentining subsidiyalar, grantlar va imtiyozli moliyalashtirishni keng joriy etishga qaratilgan qarorlari mazkur nazariy qarashlar bilan mos keladi.

"Ilmiy adabiyotlarda kambag'allikni qisqartirishda hududiy yondashuvning ahamiyati keng yoritilgan. Masalan, Xudoyberdiyev (2024) davlat siyosatining ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlarini tahlil qilarkan, aholini bandlik, daromadni oshirish va ijtimoiy himoya strategiyalarining muhimligini ta'kidlaydi, bu hududiy samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, Mustafakulov (2025) viloyatlar o'rtasidagi iqtisodiy tafovutlar va hududiy rivojlanish strategiyalarini tahlil qilib, resurslardan samarali foydalanish orqali ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlikni oshirish zarurligini asoslaydi. Shuningdek, viloyat miqyosida qishloq xo'jaligi sektorining ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarga ta'siri tahlil qilingan bo'lib, bu hududiy yondashuvning amaliy ahamiyatini ko'rsatadi.

Umuman olganda, Prezident qarorlari va Vazirlar Mahkamasi hujjatlarida belgilangan vazifalar iqtisodiy nazariya va yetakchi olimlar fikrlari bilan uyg'un holda shakllangan bo'lib, ularning hududiy darajada samarali ijrosi kambag'allikni barqaror qisqartirishga xizmat qilishi ilmiy jihatdan asoslanadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqotda Qashqadaryo viloyatida sanoatni rivojlantirishni jarayonlari tahlil qilindi. Tadqiqot metodologiyasi rasmiy statistik ma'lumotlar, Milliy statistika qo'mitasining 2025-yillarga oid ko'rsatkichlariga asoslandi. Hududlar bo'yicha sanoatni rivojlantirish jarayonlarining tarmoqlar kesimida tahlil qilindi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Bugungi kunda viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish xajmi 2026-yil 1-yanvar holatiga 47 788,6 mlrd.sumni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 107,2 foizni tashkil etdi.

Jumladan, Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash chiqarish xajmi 2 107,9 mlrd.sum (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 127,3 foizga), Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlar hajmi 39 236,4 mlrd.sum (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 105,6 foizga), Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash xizmati 6188,8 mlrd.sum (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 104,0 foizga) va Suv bilan ta'minlash, kanalizasiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizasiya qilish 255,5 mlrd.sumni (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 97,9 foizga) tashkil etdi.

Hududlar kesimida sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi quyidagidan iborat. Jami viloyat bo'yicha yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan hududlar quyidagilardan iborat.

Shundan Nishon tumani 12 130,4 mlrd.sum jami viloyat ishlab chiqarish hajmining 25,4 foizi, Qarshi shahri 5367,4 mlrd.sumni 11,2 foizni, G'uzor tumani 4812,0 mlrd.sumni 10,1 foizni va Qarshi tumani 3038,8 mlrd.sumni 6,4 foizni tashkil etdi.

2025- yil yanvar-dekabr oylarida qayta ishlash sanotining texnologik tarkibi sanoat ishlab chiqarish hajmi viloyat bo'yicha jami 33725,8 mlrd.sumni tashkil etdi.

Shundan, yuqori texnologiyali ishlab chiqarish 355,7 mlrd.sumni, o'rta-yuqori texnologiyali ishlab chiqarish 4890,3 mlrd.sumni, o'rta-quyi texnologiyali ishlab chiqarish 10670,7 mlrd.sumni va quyi texnologiyali ishlab chiqarish 17809,1 mlrd.sum hisobiga tug'ri keladi.

2025-yil yanvar-dekabr oylarida qayta ishlash sanoatining texnologik tarkibi quyidagidan iborat. Jumladan, yuqori texnologiyali ishlab chiqarish 1,1 foiz, o'rta-yuqori texnologiyali ishlab chiqarish 14,5 foiz, o'rta-quyi texnologiyali ishlab chiqarish 31,6 foiz, quyi texnologiyali ishlab chiqarishni 52,8 foizni tashkil etadi.

Hududlar bo'yicha 2025- yilning yanvar-dekabr oylarida kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlar hajmi va jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmidagi ulushi quyidagilardan iborat.

1-jadval

Hududlar bo'yicha 2025- yilning yanvar-dekabr oylarida kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlar hajmi

Viloyat bo'yicha jami	Ishlab chiqarish mlrd. so'm	Jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmidagi ulushi %
	19 668,5	41,2
Qarshi sh.	2 275,9	42,4
Shahrisabz sh.	773,6	90,3
G'uzor	890,3	18,5
Dehqonobod	309,1	27,3
Qamashi	930,9	99,7
Qarshi	1 625,1	53,5
Koson	840,6	38,3
Kitob	897,2	51,3
Mirishkor	957,9	75,5
Muborak	565,6	41,0
Nishon	1 704,5	14,1
Kasbi	380,9	14,1
Ko'kdala	310,1	101,0
Chiroqchi	945,8	99,8
Shahrisabz	678,9	57,3

2025- yilning yanvar-dekabr oylarida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi va jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmidagi ulushi

2-jadval

2025- yilning yanvar-dekabr oylarida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi

Viloyat bo'yicha jami	Ishlab chiqarish Ishlab chiqarish	Jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmidagi ulushi %
	5 905,1	12,4
Qarshi sh.	253,4	4,7
Shahrisabz sh.	-	-
G'uzor	116,9	2,4
Dehqonobod	-	-
Qamashi	-	-
Qarshi	1 251,4	41,2
Koson	851,2	48,7
Kitob	2,1	0,2
Mirishkor	558,1	40,5
Muborak	1 231,0	10,1
Nishon	1 591,5	59,0
Kasbi	39,0	12,7
Ko'kdala	5,9	0,6
Chiroqchi	-	-
Yakkabog'	4,6	0,4

Viloyatda 2025- yil yanvar-dekabr oylarida aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari ulushi shundan iborat.

**Viloyatda 2025- yil yanvar-dekabr oylarida aholi jon boshiga ishlab
chiqarilgan sanoat mahsulotlari ulushi**

Viloyat bo'yicha jami	Ishlab chiqarish	2025- yil yanvar-dekabr 2024- yil yanvar-dekabrga nisbatan foizda
	12 992,6	105,0
Qarshi sh.	17 681,6	104,4
Shahrisabz sh.	5 655,6	103,2
G'uzor	20 970,0	102,3
Dehqonobod	6 894,4	102,0
Qamashi	3 078,6	102,9
Qarshi	10 737,1	102,1
Koson	6 787,4	108,1
Kitob	6 021,2	101,1
Mirishkor	9 495,5	106,2
Muborak	14 339,6	112,4
Nishon	70 288,7	110,7
Kasbi	12 251,8	103,0
Ko'kdala	1 557,2	103,8
Chiroqchi	3 414,0	100,8
Yakkabog'	4 916,7	105,2

Xulosa va takliflar.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Qashqadaryo viloyatida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi barqaror o'sish tendensiyasiga ega bo'lib, bu hudud sanoat salohiyatining bosqichma-bosqich mustahkamlanayotganidan dalolat beradi. 2025–2026 yillar davomida jami sanoat mahsulotlari hajmining oshishi, ayniqsa qayta ishlash sanoati ulushining yuqoriligi hududda yuqori qo'shilgan qiymat yaratishga qaratilgan ishlab chiqarishlar rivojlanayotganini ko'rsatadi

Tahlillar shuni tasdiqladiki, viloyat sanoatida Nishon tumani, Qarshi shahri hamda G'uzor tumani yetakchi o'rinlarni egallab, umumiy ishlab chiqarish hajmida salmoqli ulushga ega. Shu bilan birga, kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining yuqoriligi tadbirkorlik muhitining faollashganini hamda hududiy bandlikni ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qilayotganini ko'rsatmoqda.

Qayta ishlash sanoatining texnologik tarkibida quyi va o'rta-quyi texnologiyali ishlab chiqarishlar ustun bo'lib qolayotganligi esa kelgusida yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarni kengaytirish, innovatsion loyihalarni jalb etish hamda xorijiy investitsiyalar ishtirokini oshirish zarurligini anglatadi.

Umuman olganda, O'zbekistonda olib borilayotgan sanoatni rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosati hududlar kesimida ijobiy natijalar bermoqda. Kelgusida viloyatda sanoat infratuzilmasini modernizatsiya qilish, yuqori texnologiyali tarmoqlarni rivojlantirish va kichik biznesni qo'llab-quvvatlash choralari kuchaytirish hududning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar / Literature / Reference:

Azimov, A., & Begaliyeva, M. (2025). Viloyatda chorvachilik mahsulotlarini o'tgan yilga nisbatan o'zgarishi. *YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT*, 3(3).

Joseph Stiglitz. (2012). *The price of inequality*. W. W. Norton & Company.

O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. (2025). *Qashqadaryo viloyati sanoat ko'rsatkichlari (2025–2026)*. Rasmiy statistik ma'lumotlar.

Qaror (2024) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. *Kambag'allikni qisqartirish va bandlik sohasida davlat siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida (PQ-347)*. Toshkent.

Qaror (2025) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. Hududlarda sanoatni jadal rivojlantirish va sanoat korxonalarini qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida (PQ-295). Toshkent.

Qaror (2025). O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari faoliyatini qo'llab-quvvatlashga doir chora-tadbirlar to'g'risida (317-son qaror). Toshkent.

Xodiev, B., & Mustafakulov, Sh. (2024). Hududiy rivojlanish va ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik masalalari. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.